

## AMIR TEMUR DAVLATI BOSHQARUVI

Sattorov Xurshidjon

o'qituvchi,

Farg'on'a viloyati Rishton tumani 23-maktab

**Annotatsiya:** Amir Temur jahon tarixidagi buyuk siymolardan biri, Markaziy Osiyo xalqlarining iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ulug' davlat arbobi va mohir sarkarda, fan va madaniyat homiysi bo'lgan. Amir Temur shaxsida insonning oliy vujudiga xos fazilatlar mukammal va to'la mujassam bo'lgan. Undagi joziba, surat va siyrat, oddiy odamlardan tubdan farq qiluvchi qobiliyat – so'z bilan ifoda etish qiyin bo'lgan ilohiy muhofaza, boshqalar bilmaganni bilish, boshqalar ko'rniyko'rniy qiyofa ko'rkmiligi, qat'iyat, bahodirlilik, hatto ovozning jalb etish ohangi, muomala madaniyati, ishontira olish xususiyati uning butun faoliyati chizgilarida, qutblarida o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** tarix, temuriylar madaniyati, temuriylar ma'naviyati, davlat boshqaruvi, "Temur tuzuklari", siyosat, ijtimoiy muhit.

XIV asrning oxiridan [boshlab nafaqat Sharqda](#), balki G`arbiy Yevropa mamlakatlarida [ham ijtimoiy-iqtisodiy](#), siyosiy va madaniy hayotda yuksalish jarayoni ro'y bera boshladi. O`rta Sharq mamlakatlaridagi ijtimoiy-madaniy taraqqiyotda Amir Temuring markazlashgan davlatni barpo etishi muhim rol o`ynagan bo`lsa, Yevropaning ko`pgina mamlakatlarida cherkov va dinga qarshi kurash boshlagan ilg`or fikr egalari - gumanistlarning say'-harakatlari moddiy ishlab chiqarish jarayonidagi ijobjiy o`zgarishlarda muhim rol o`ynadi. Agar ijtimoiy-madaniy taraqqiyot jarayoniga [chuqurroq kirib borilsa](#), ikkala mintaqa xalqlarining milliy o`zligini [anglay boshlaganligi](#), milliy g`urur, milliy ong va tafakkurning shakllana boshlaganligi madaniy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo`lganligini ko`rish mumkin. Ikkinchchi tomonidan marifatga intilgan o`z davri hukmdorlarining madaniy hayotning turli sohalari rivoji uchun imkoniyatlarni [yaratib bergenligi](#), o`z atrofiga o'sha davrning buyuk siymolarini to`plaganligi va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlaganligi ham madaniy taraqqiyotga samarali ta'sir ko`rsatgan.

Amir Temur va temuriylar zamoni davlatchilik siyosati, boshqaruv tizimini ko'rib chiqmoqchi ekanmiz, davlat, davlatchilik mohiyatida muayyan bir makon va jamiyatda mavjud turli imkoniyatlarni shu yerlik xalq manfaati yo'lida yuzaga chiqaruvchi tashkilotchilik yotganini eslatib o'tish g'oyatda muhimdir. Amir Temur zamonida yozilgan asarlarni o'rgansak, uning ko'p

yaxshi xislatlari: to'g'rilik, ma'naviyatlilik, muruvvatlilik, el-yurtga mehr-muhabbat va boshqalarni kuzatish mumkin. Amir Temurning "Temur tuzuklari", Sharofiddin Ali Yazdining "Zafarnoma"si, Ibn Arabshohning "Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari" kabi asarlarda keltirilgan sohibqironning ibratli ishlari, pand-nasihatlari va o'gitlarida ma'naviy jasorati kuzatiladi. Bular el-yurt va fuqarolarning tashvishi, raiyatparvarlik, mehr-muruvvat, qo'shnichilik odobi, mardlik va qahramonlik haqidagi o'gitlaridir.

Amir Temurning siyosat maydoniga qadam qo'yishida ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan birga, uning shaxsiy fazilatlari va imkoniyatlari katta rol o'ynaganligini inkor etish mumkin emas. Chunonchi Amir Temurning navqiron yoshlik yillari ona yurtining bag'rikeng dala-yu dashtlarida ot choptirib, chavandozlik, jismoniy chiniqish, merganlik, harbiy o'yin va mashq sirlarini puxta egallash bilan o'tganligi unda o'z yurtiga nisbatan cheksiz mehr-muhabbat, ota-bobolar o'gitlariga sadoqat, vatandoshlar or-nomusi uchun kurashish, yurtdoshlarning sha'ni va nufuzini himoya qilishni barcha narsadan ustun qo'yish kabi xislatlar egasi bo'lgan dovyurak bahodir bo'lib yetishishida o'ziga xos zamin bo'ldi.

Amir Temur o'z davlatini aql-idrok, zakovat va huquqiy asoslarga tayangan holda idora etib, boshqaruvida ijtimoiy adolat tamoyillariga riya qilishni o'zining asosiy burchi deb bilgan. Buyuk bobokalonimiz o'z amirlari va amaldorlarining xalqqa nisbatan nohaq zulm yetkazib qo'ymasligi borasida doimo tashvish chekkan, makr-zulm, riyokorlik kabi illatlarni sultanatga xavf soladigan qusurlar, deb hisoblagan. Sohibqiron ra'iyatga iqtisodiy yengilliklar berish orqali mamlakatda tinchlik va jipslikni mustahkamlashga, aholida sultanatga sadoqat ruhini yuksak tutishga qaratilgan edi. Fuqarolar ijtimoiy muhofaza tizimining barpo etilishi sultanat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Amir Temur sultanat boshqaruvida hukmdor uchun quyidagi o'n ikki xislat zarurligini alohida ta'kidlab o'tgan:

Hukmdor birinchidan o'z so'ziga ega bo'lishi, ikkinchidan adolatli bo'lishi, uchinchidan har ishda faqat o'zi hukm chiqarishi, to'rtinchidan qarorda qat'iy bo'lishi, beshinchidan hukmi joriy etilishi, oltinchidan podsholik ishlarini har kimga topshirib qo'ymasligi, yettinchidan ko'pchilikning fikrini eshitishi, sakkizinchidan shoshmasdan, mulohaza bilan ish yuritishi, to'qqizinchidan sipoh-u ra'iyatni umid bilan qo'rquv orasida saqlashi, o'ninchidan barcha ishni o'z erkicha qilishi, o'n birinchidan o'z ishlariga birovni sherik qilmasligi va o'n ikkinchidan davlat ishlarini maxfiy saqlab, boshqalardan ogoh va hushyor bo'lishi lozim.

Amir Temurning "Temur tuzuklari"da bayon etilgan davlatni boshqarish xususidagi fikr-mulohazalarida davlatda huquq-tartibot ustuvorligini o'rnatish uchun mas'ul bo'lgan kishilarning axloqiy fazilatlariga alohida e'tibor beriladi. Amir Temur bu haqda "Men tajribamdan shuni bildimki, yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin ekan" degan va shu tariqa, sultanat manfaatlari yo'lida xizmat qiluvchi xodimlarga o'z holi, iqtidoriga yarasha topshiriq va vazifalar yuklab, ularni ijtimoiy jihatdan rag'batlantirib, suyurg'ol va maoshlar bilan ta'minlagan. Sultanatda devonbegi va vazirlar xizmatchilarga davlat tomonidan beriladigan mulklar to'g'risidagi ma'lumotlardan Amir Temurni muntazam voqif etib turishgan. Hukmdor sultanat boshqaruvida ochiqko'ngil, qat'iyatli, talabchan, rahbar sifatida doimo barcha fuqarolarga baravar munosabatda bo'lgan. Sultanatdagi birlik va hamjihatlikni saqlash maqsadida Amir Temur lashkarlariga muruvvat ko'rsatishga alohida e'tibor qaratgan. Bir guruhni mol-u dunyo bilan boshqalarni esa yaxshi so'z ahd-u paymon va va'dalar bilan ko'nglini ko'tarib, o'z xizmatiga chorlagan.

Shuningdek, davlat oldida o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashgan, fidokorlik ko'rsatgan saroy xizmatchilari, lashkarboshi va askarlar uchun xazinadan maxsus maosh tayinlagan. Sohibqiron "Temur tuzuklar"ida mamlakat taraqqiyoti yo'lida xizmat qiluvchi "Sofdil kishilar, sayyidlar, olimlar va fozillar uchun doim dargohim ochiq edi" deya alohida e'tibor qaratgani holda, karvon o'tadigan yo'llarda qattiq tartib o'rnatib, savdogarlarga ziyon yetkazuvchi qaroqchilarni ayovsiz jazolagan. Xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirish uchun qulayliklar tug'dirish maqsadida har bir shaharda karvonsaroylar barpo etgan. Hatto ajnabiy savdogarlar keltirgan mollarni daxlsiz saqlash ham sohibqiron nazaridan chetda qolmagan. Ulkan mamlakatni o'zi tomonidan tayinlangan ishonchli bek va amirlar orqaliadolat va qonun ustuvor holda idora eta olgan.

Mamlakatni boshqarishda barcha toifa vakillaridan iborat Qurultoy, Davlat Kengash va Harbiy Kengash maslahatidan keng foydalanish ham Amir Temuvrning asosiy tutumlaridan bo'lgan. Sultanatni idora etishda "Kuch – adolatda" shioriga amal qilib, xalq fikri, xohish-irodasiga ko'ra yurt taqdiriga daxldor qarorlarni qabul qilgan. Lashkarlarni o'z atrofiga birlashtirmoq uchun ba'zilarga muruvvat, mehribonlik qilgan, boshqalar bilan kelishishga intilgan.

Amir Temur ijtimoiyadolat mezonlariga riosa etgan holda jamiyatda ijtimoiyadolat o'rnatishni hayotining asosiy mazmuni deb bilgan. Mamlakat tinchligiga qarshi qaratilgan real xatarlarni oldindan ko'ra bilish, uning xavfiliq darajasini aniqlash maqsadida maxsus axborot xizmatini

shakllantirishni yo'lga qo'ygan. "Har bir diyor aholisining ahvoldan ogoh bo'lib turdim. Har bir mamlakat ahvoli, sipoh-u askarlarning kayfiyati, aholing turmush tarzini va aloqalarini yozib menga bildirib turish uchun diyonatli, to'g'ri qadamli kishilardan voqenavislar belgiladim", degan edi bu borada sohibqiron.

Temur davlatining eng ko'zga ko'ringan va muammoli tomoni shundaki, sohibqiron kichik bir viloyat doirasida tarbiya topgan bo'lsa-da, davlat mafkurasining boshqaruv tayanchi kuchli xokimiyat ekanligini tushundi va davlat, sultanat ishlarini yuzaga chiqarishda kamchilikka yo'l qo'ymaydigan vazirlarni tanlashga harakat qildi. Amir Temur vazir to'rtta sifatga ega bo'lishi lozim deb xisoblagan: birinchisi - aslllik, toza nasllilik, ikkinchisi - aql-farosatlilik, uchinchisi - sipoxu raiyat axlidan xabardorlik turtinchisi - sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Amir Temur xukmronlik qilgan davrlarda davlatning markaziy ma'muriyati boshida devonbegi, arkbegi va to'rt vazir turgan. Vazirlar soliqlar yig'ish, meros ishlari, askarlar maoshi va ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash, saroy xarajatlari bilan bog'liq bo'lган ishlarni bajarganlar.

Amir Temur hukmdor uchun quyidagi o'n ikki xislat zarurligini va bu xislatlarning birortasiga amal qilinmasa sultanat ishlariga putur yetishi mumkinligini tarixiy misollar bilan isbot qilib bergen edi. Amir Temur hukmdor birinchidan o'z so'ziga ega bo'lishi, ikkinchidanadolatpesha bo'lishi, uchinchidan har ishda faqat o'zi hukm chiqarishi, to'rtinchidan qarorida qat'iy bo'lishi, beshinchidan hukmi joriy etilishi, oltinchidan podsholik ishlarini har kimga topshirib qo'ymasligi, yettinchidan ko'pchilikning fikrini eshitishi, sak qizinchidan shoshmasdan mulohaza bilan ish yuritishi, to'qqizinchidan sipohu, raiyatni umid va qo'rquv orasida saqlashi, o'ninchidan barcha ishni o'z erkicha qilishi, o'n birinchidan o'z ishlariga birovni sherik qilmasligi va o'n ikkinchidan davlat ishlarini maxfiy saqlab, boshqalardan ogoh va hushyor bo'lishligi lozimligini alohida o'qtirgan edi.

Amir Temur davrida yangi shahrlar, savdo va hunarmandchilik keng rivojlanganligini aytib o'tish lozim. Temurning sa'yxarakatlari bilan Buxoro, Shaxrisabz, Toshkent kabi shaxarlar savdo va xunarmandchilik markazlari sifatida rivojlanib bordi. Ayniksa, Bu davrlarda xunarmandchilik maxallalari, savdo rastalari soni ortib borishida katta axamiyatga ega bo'ldi. Sohibqiron savdo yullari rivojiga, uning tinchligiga keng e'tibor berib bordi. Shaxsan uzining nazorati ostida savdo yo'llari nazorat qilib borilishi savdo karvonlarining xavfsizligini ta'minladi. Amir Temur davlatining mafkurasi ijtimoiy-iktisodiy xayotni izga solib yunaltirishdan tashkari siyosiy xayotda xam kuch keng yulga kuydi. Sohibqiron chet davlatlar bilan aloqani keng yulga kuydi. U davr shart-sharoitlariga kura tashki siyosatda qat'iy, faol xarakat kilib,

uz sultanati dovrugini jaxon mikyosida chikara oldi. Sohibqironning Yildirim Boyazid ustidan bulgan galabalaridan sung Fransiya, Angliya, Genuya va Vizantiya erkin alokalarni, savdogarlar va mol almashishni taklif etgan. Shunday qilib u Yevropa davlatlari bilan yakin kushnichilik kilish, savdo karvon yullarini rivojlantirish niyati borligini ko'rsatib o'z davlati shuxratini Yevropaga tarqata oldi. Uning sultanati dovrugi bu mamlaka tlarga etib borishi bilan Fransiya, Angliya, Genuya, Vizantiya, Ispaniya kabi davlatlarning kirollari soxibkiron bilan siyosiy, iqtisodiy, savdo aloqalari o'rnatishga intilganlar. Shu bois ular sohibqiron xuzuriga muntazam elchilar yuborib turganlar. Temurning chet davlatlar bilan olib borgan diplomatik alokalarida uning ugli Mironshox kup yordam bergen.

Amir Temur uz oldiga ulug davlatning ichki siyosati va ishchan davlat tizimini qadimiy tajribalardan ijodiy foydalangan xolda tuzish, xarbiy siyosatni zamon talabi asosida tobora takamillashtirib, mugil istilosini asoratlarini tezrok bartaraf etib, xujalikni oyokka turgizish, savdo-sotik xunamandchilikni bir miyorga tushirish va rivojlantirish axoli mafatlarini ximoya kilish, islom diniga rivoj berish, ilm-fan, madaniyat, me'morchilikni tubdan rivojlantirish, obodonlashtirish ishlarini keng kulamda jadalashtirish kabi dolzarb vazifalarni kuygan edi. Uning bunday sa'yxarakatlari katta kuch-gayrat, mablag, bilim va okilona tadbirlarni talab etar edi. Temur yetuk siyosatdon va moxir davlat arbobi bulib, u uzidan avval utgan xukmdorlardan farqli ravishda, davlat va mamlakatni boshkarishda bir yoki ikki tabakaga emas, balki axolining barcha tabakalariga suyangan. Xurmatli yurtboshimiz Islom Karimov Amir Temur davri ma'anviyati, sohibqiron shaxsiyati va u qoldirgan ulkan meros nima uchun zarurligi masalalariga to'xtalib, buni quyidagicha sharhlab berdilar: "Amir Temur avvalo qudratli davlat qurban. Davlat qudratli bo'lmasa, betakror ma'naviy meros xam, obidalar xam, tarixiy yodgorliklar xam bo'lmasdi. O'zbekistonning bugungi ozodligini mustahkamlash davrida Amir Temur biz uchun buyuk davlat asoschisi sifatida qadrlidir. U davlat poydevorini qurban, davlatning xukukiy asoslarini barpo etgan. Uning davlatchilik borasidagi fikrlari nafaqat o'z davri balki kelgusi avlodlar uchun xam katta axamiyat kasb etadi. Amir Temur o'z davlatini aql-zakovat va xukukiy asos bilan idora etgan.

Temurning ijtimoiy-siyosiy tamoyillari tizimini yanada bat afsilroq bayon qilsak, quyidagi manzara hosil bo'ladi: 1. Amir Temur iqtisodiyotni har qanday sultanat poydevori, deb tushungan. «Davlatu sultanat – deb ta'kidlaydi, Temur o'zining «Tuzuklari»da, – uch narsa bilan – mulk, xazina va lashkar bilan tirikdin». Bu bilan Temur davlatning yashashi va ijtimoiy rivoji uchun, avvalo, iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. 2.

Amir Temurning qarashlariga ko'ra, har bir mamlakat, turli xil iqtisodiy imkoniyatlardan kelib chiqib, barcha mintaqalar «xususida to'la ma'lumotlarga ega bo'lishi va ularning iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olishi» lozim. 3. Amir Temur asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan er egaligiga katta e'tibor qildi va har bir viloyatni idora qilishda davlat, vaqf, xususiy er egaligi tartiblarini saqlab qoldi va bunga er maydonining miqdori, egalik huquqini davlat manfaatini ko'zda tutib, o'zgartirishga harakat qildi. 4.Temur mehnatning yaratuvchanlik faoliyatini nazarda tutib, uni ijtimoiy qadriyat, deb tushundi. 5.Amir Temur iqtisodiy tamoyillari tizimida moliya masalalariga katta e'tibor bergen. Chunki moliya Temur nazarida davlatning iqtisodiy tayanchi hisoblangan.

Xulosa qilib aytganda, sohibqiron Amir Temur xalq ozodligi, tinchligi yo'lida yurt bayrog'ini baland ko'tardi. Vatan manfaati va kelajagi uchun ulkan buniyodkorlik va yaratuvchanlik ishlarini amalga oshirgan buyuk davlat arbobi ekanligini har bir ishi va xatti-harakatida namoyish etdi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. I.Rustamov. O'zbekiston tarixi. Ma'ruzalar matni. TATU FF, 2019.
2. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.- Toshkent: Sharq, 2000.
3. Каримова, Г. (2022). МАЊНАВИЯТ ВА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ. Экономика и социум, (3-2 (94)), 612-615.
4. Рафиковна, Д. К., & Каримова, Г. Й. (2020). Ёшларни ижтимоий фаоллигини оширишда қадриятларнинг аҳамияти. Перекрёсток Культуры, 2(1).
5. Gulnoza, K. (2023). MAMLAKATIMIZDA YOSHLAR AXLOQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA DAVLAT HAMDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING O 'RNI. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 15, 444-448.
6. Rasulova, A., & Karimov, U. (2022). Socio-Pedagogical aspects of the formation of reading culture and skills. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(4), 114-118.
7. Karimov, U., & Ergasheva, D. (2020). Educational issues in the period of amir temur and temurids. Теория и практика современной науки, (5 (59)), 18-20.